



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 6 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 6

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-6>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslovovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Рузиназаров Шухрат Нуралиевич ЮРИДИК ТАЪЛИМНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИ ШАРОИТИДА «РАҚАМЛИ ҲУҚУҚ» (DIGITAL LAW) ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	5
2. Aminov Dalerjon Alisher o'g'li O'ZBEKISTONDA HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT HAMKORLIGINING ZAMONAVIY MODELLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	34
3. Зулунов Махсудбек Махаммаджонович ФОНДЛАР МУЛКИНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ РЕЖИМИ: НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА ҲУҚУҚИЙ ТАБИАТИ.....	41
4. Азизов Иқболжон Гулямович ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССИДА ИШ ЮЗАСИДАН ХУЛОСА БЕРИШ УЧУН ИШТИРОК ЭТУВЧИ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ОРГАНИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ҲОЛАТИ.....	50
5. Жураев Анваржон Ильхомжон угли ПРАВОВАЯ ПРИРОДА МАХАЛЛИ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННЫХ ВИДОВ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	58
6. Алтиев Раззоқ Саидович ЖИНОЯТЛАРНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ, АҲАМИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ.....	67
7. Давлетмуратов Султанмурат Рустемович МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР: ТУШУНЧА, ТАСНИФ ВА ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИК НОРМАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	79
8. Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li JINOYAT KODEKSI UMUMIY VA MAXSUS QISMLARI NORMALARI RAQOBATINING HUQUQIY TAHLILI.....	88
9. Кахаров Фируз Елмуратович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ҚЎШИМЧА ЖАЗОЛАР ТИЗИМИ: ҲУҚУҚИЙ ТАВСИФ ВА АМАЛИЙ ТАҲЛИЛ.....	98
10. Salaev Nodirbek Saparbaevich TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN'S PENAL ENFORCEMENT LEGISLATION: A NEW PARADIGM OF HUMANISM, REINTEGRATION AND INNOVATIVE PENITENTIARY POLICY.....	106
11. Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович ТЕРРОРИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА РАҚАМЛИ ДАЛИЛЛАРНИ ОЛИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК.....	115
12. Adilxodjaev Sherzod Shuxratovich KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATINING DOLZARB MASALALARI: KORRUPSIYA TUSHUNCHASI VA ALOMATLARI.....	124



12.00.02-КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

Aminov Dalerjon Alisher o'g'li,

Buxoro davlat universiteti yurisprudensiya kafedrası o'qituvchisi,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,

E-mail: daleraminov554@mail.ru

O'ZBEKISTONDA HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT HAMKORLIGINING ZAMONAVIY MODELLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

For citation: Aminov Dalerjon Alisher ogli. MODERN MODELS AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF LEGAL EDUCATION AND PRACTICE COOPERATION IN UZBEKISTAN. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 6.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21938550>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda huquqiy ta'lim va amaliyot hamkorligini rivojlantirishning nazariy modellari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda klaster yondashuvi, "Uch spiral" modeli, klinik-amaliy va dual ta'lim modellarining tarixi, xususiyatlari va huquqiy ta'lim tizimidagi o'rni yoritilgan. Har bir modelning yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdagi ustunliklari, amaliyot bilan integratsiyalashuv mexanizmlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida ushbu modellarning tatbiq etilish istiqbollari va ularning samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot, integratsiya modellari, klaster, "Uch spiral", dual ta'lim, klinik ta'lim, kadrlar tayyorlash.

Аминов Далержон Алишер угли,

Преподаватель кафедры юриспруденции

Бухарского государственного университета,

Самостоятельный соискатель Ташкентского

государственного юридического университета

E-mail: daleraminov554@mail.ru

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАКТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведен научный анализ теоретических моделей развития сотрудничества юридического образования и практики в Узбекистане. В исследовании освещены история, особенности и место в системе юридического образования таких моделей, как кластерный подход, модель «Тройная спираль», клиничко-практическая модель и дуальное обучение. Раскрыты преимущества каждой модели в повышении качества подготовки юридических

кадров, механизмы интеграции с практикой и социально-экономическое значение. Также в статье представлены научные выводы о перспективах применения этих моделей в условиях образовательной системы Узбекистана и путях повышения их эффективности.

Ключевые слова: юридическое образование, юридическая практика, модели интеграции, кластер, «Тройная спираль», дуальное образование, клиническое обучение, подготовка кадров.

Aminov Dalerjon Alisher ogli,

Lecturer of the Department of Jurisprudence at Bukhara State University,

Independent Researcher, Tashkent State University of Law

E-mail: daleraminov554@mail.ru

MODERN MODELS AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF LEGAL EDUCATION AND PRACTICE COOPERATION IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article provides a scientific analysis of theoretical models for the development of cooperation between legal education and practice in Uzbekistan. The study highlights the history, characteristics, and role in the legal education system of such models as the cluster approach, the "Triple Helix" model, clinical-practical model, and dual education. The advantages of each model in improving the quality of legal personnel training, mechanisms of integration with practice, and socio-economic significance are revealed. The article also presents scientific conclusions on the prospects for applying these models in the context of the education system of Uzbekistan and ways to increase their effectiveness.

Keywords: legal education, legal practice, integration models, cluster, "Triple Helix", dual education, clinical education, staff training.

Jahon amaliyotida huquqiy ta'lim bugungi kunda «transformativ» bosqichga qadam qo'yimoqda. Ya'ni, huquqshunos shuncha bilimdon shaxs emas, balki huquqiy texnologiyalarni yaxshi biladigan, muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lgan va ijtimoiy mas'uliyatni his etuvchi amaliyotchi sifatida shakllantirilmoqda. O'zbekistonda ham yuridik kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlarga, xususan, Boloniya deklaratsiyasi talablariga muvofiqlashtirish jarayoni davom etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim va amaliyot o'rtasidagi «uzilish»ni bartaraf etish nafaqat ta'lim sifati, balki butun sud-huquq tizimining ishonchlilikini oshirishning garovi hisoblanadi.

Huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasi deganda yuridik oliy ta'lim muassasalari hamda huquqni qo'llash amaliyoti subyektlari o'rtasida barqaror, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan hamkorlikni tushunish mumkin. Bunday integratsiya yuridik ta'lim mazmunini real huquqiy jarayonlar bilan bog'laydi, talabalarni kasbiy faoliyatga erta tayyorlaydi va bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yuridik ta'lim va fanni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmonida yuridik ta'lim va fan tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardoshlikni ta'minlash hamda yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan.[1] Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmonida yuridik ta'lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.[2]

Mazkur masalani nazariy jihatdan asoslashda bir nechta konsepsiyalar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasi huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Porter klasterni muayyan soha doirasida o'zaro bog'liq tashkilotlar, institutlar va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarning raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi tizimli birlashmasi sifatida talqin qiladi.[3]

Huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasining yana bir muhim nazariy asosi H.Etzkowitz va L.Leydesdorff tomonidan ilgari surilgan "Uch spiral" modelidir. Ushbu modelda universitet, davlat

va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi hamkorlik innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida qaraladi. Huquqiy ta'lim sharoitida bu modelni "universitet — davlat — huquqiy amaliyot" shaklida izohlash mumkin. Bunda universitet bilim va ilmiy-metodik ta'minotni yaratadi, davlat normativ-huquqiy asos va strategik siyosatni belgilaydi, huquqiy amaliyot subyektlari esa talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda amaliy baza vazifasini bajaradi.

D.Kolbning tajribaviy ta'lim konsepsiyasi ham yuridik ta'limni amaliyot bilan bog'lashda muhim ilmiy asos hisoblanadi. Kolbga ko'ra, bilim faqat nazariy axborotni o'zlashtirish orqali emas, balki tajriba, kuzatish, tahlil, refleksiya va amaliy qo'llash jarayonida shakllanadi.[4] Bu yondashuv huquqiy ta'lim uchun ayniqsa dolzarbdir. Chunki huquqshunoslik faoliyati nazariy bilim bilan bir qatorda huquqiy muammoni tahlil qilish, normani sharhlash, yuridik xulosa tayyorlash, sud-huquqiy pozitsiya ishlab chiqish va mijoz bilan muloqot qilish ko'nikmalarini ham talab qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasining zamonaviy pedagogik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim natijasi talabaning faqat bilim darajasi bilan emas, balki uning huquqiy vaziyatni baholash, mustaqil qaror qabul qilish, yuridik hujjat tayyorlash, muzokara olib borish, kasbiy etikaga rioya qilish va huquqiy yechim taklif eta olish qobiliyati bilan baholanadi. Demak, huquqiy ta'lim amaliyot bilan bog'langandagina kompetensiyaviy ta'limning real natijadorligi ta'minlanadi.

Ishimizda huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasining asosiy modellarini batafsil tasniflashga harakat qilamiz. Nazariy manbalar va O'zbekiston sharoitidagi yuridik ta'lim islohotlarini umimlashtirish asosida huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasining quyidagi modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Institutsional-integratsion model. Ushbu modelning nazariy asosi sotsiologiyadagi institutsionalizm (institutsional yondashuv)ga borib taqaladi. Bu yondashuvga ko'ra, ta'lim muassasalari jamiyatning boshqa institutlari (davlat, sud, iqtisodiyot) bilan o'zaro mustahkam aloqalar tizimini shakllantirishi kerak. Xususan, 1990-yillardan boshlab Yevropa va AQSh universitetlarida "Civic engagement" (fuqarolik ishtiroki) va "University partnership" (universitet sherikligi) konsepsiyalari rivojlanib, universitetlarning tashqi institutlar bilan integratsiyasi yangi bosqichga ko'tarildi [5]. Bu jarayon ta'limning "tizimdan tashqari" emas, balki butun jamiyat tizimining ajralmas qismi ekanligini anglatadi. Institutsional-integratsion modelda yuridik oliy ta'lim muassasasi sud-huquq organlari, advokatura, notariat, prokuratura, davlat boshqaruvi organlari, yuridik xizmatlar va ish beruvchilar bilan doimiy va shartnomaviy asosda hamkorlik qiladi. Bu modelning asosiy farqi shundaki, hamkorlik vaqtinchalik yoki shaxsiy aloqalarga emas, balki rasmiy hujjatlar (shartnomalar, memorandumlar) va doimiy ishchi guruhlar orqali amalga oshiriladi. Bunda amaliyotchi mutaxassislar dars jarayonlariga jalb qilinadi, o'quv rejalari ish beruvchilar fikri asosida takomillashtiriladi.

Mazkur modelning asosiy manfaati ta'lim jarayonining barqarorligi va amaliyotga yo'naltirilganligidadir. U yuridik ta'limni yopiq akademik tizimdan ochiq tizimga aylantiradi. Integratsiya natijasida talabalar sud-huquq tizimi va yuridik xizmatlar faoliyati bilan bevosita tanishadi, bitiruvchilarning ishga joylashuvi osonlashadi. Bundan tashqari, ushbu model orqali universitet ilmiy salohiyati va amaliyotchilar tajribasi o'zaro boyitiladi (o'qituvchilar amaliyotga yuboriladi, amaliyotchilar ma'ruza o'qiydi). Bu modelda yuridik oliy ta'lim muassasasi sud-huquq organlari, advokatura, notariat, prokuratura, davlat boshqaruvi organlari, yuridik xizmatlar va ish beruvchilar bilan doimiy hamkorlik asosida faoliyat yuritadi. Institutsional-integratsion modelning asosiy vazifasi ta'lim jarayonini real kasbiy muhit bilan bog'lashdan iborat. Bunda amaliyotchi mutaxassislar dars jarayonlariga jalb qilinadi, o'quv rejalari ish beruvchilar fikri asosida takomillashtiriladi, talabalar esa sud-huquq tizimi va yuridik xizmatlar faoliyati bilan bevosita tanishadi.

"Universitet — davlat — huquqiy amaliyot" modeli. Ushbu konsepsiya 1990-yillarda Genri Etkovitz va Loet Leydesdorff tomonidan taklif qilingan "Uch spiral" (Triple Helix) nazariyasiga asoslangan [6]. Dastlab, bu model universitet-sanoat-hukumat o'rtasidagi munosabatlarni innovatsion iqtisodiyot nuqtai nazaridan tushuntirish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa, keyinchalik huquqiy ta'limga moslashtirildi. Bu modelda universitet ilmiy va ta'limiy markaz, davlat normativ-huquqiy tartibga

soluvchi subyekt, huquqiy amaliyot (sudlar, advokatura) esa kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi muhit sifatida ishtirok etadi. Spiral shaklidagi tasvir shundan dalolat beradiki, har bir subyekt boshqasining funksiyalarini qisman bajarishi mumkin (masalan, universitet huquqiy ekspertiza ishlari bilan shug'ullanishi orqali "amaliyot" funksiyasini bajaradi).

Bu modelning ahamiyati shundaki, u ta'lim jarayonini faqat universitet ichki ishi emas, balki davlat siyosati va professional hamjamiyatning umumiy mahsuli sifatida ko'rsatadi. Integratsiya natijasida yuridik ta'lim siyosati, sud-huquq islohotlari va yuridik xizmatlar tizimi o'zaro uyg'unlashadi. Bu orqali ta'lim mazmunining davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi ta'minlanadi. Bu model "Uch spiral" nazariyasining huquqiy ta'limga moslashtirilgan ko'rinishidir. Unda universitet ilmiy va ta'limiy markaz, davlat normativ-huquqiy tartibga soluvchi subyekt, huquqiy amaliyot esa kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi muhit sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston sharoitida ushbu model yuridik ta'lim siyosati, sud-huquq islohotlari va yuridik xizmatlar tizimini o'zaro uyg'unlashtirish uchun muhim nazariy asos bo'la oladi.

Klinik-amaliy model. Klinik ta'limning tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida AQSh yuridik ta'lim tizimida yuzaga kelgan. Dastlab Kristofer Lengdel tomonidan "keys-metod" (vaziyatni tahlil qilish) joriy etilgan bo'lsa, keyinchalik talabalarining real mijozlar bilan ishlashini nazarda tutuvchi klinik ta'lim shakllandi. Mazkur model D.Kolbning tajribaviy ta'lim (Experiential Learning) nazariyasiga asoslanadi: bilim tajriba orqali shakllanadi. Model talabalarining yuridik klinikalar, bepul huquqiy maslahat markazlari, sud jarayonlarini modellashtirish orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yerda talaba nafaqat o'rganadi, balki real huquqiy muammoni hal etish jarayonida ishtirok etadi.

Klinik model talabaning professional mas'uliyatini va axloqiy me'yorlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. U huquqiy bilimni real ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'laydi. Talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, mijoz bilan muloqot qilish va hujjat tayyorlash kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu model huquqshunos shaxsiyatini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Klinik-amaliy model talabalarining yuridik klinikalar, bepul huquqiy maslahat markazlari, sud jarayonlarini modellashtirish, keys-stadi va amaliy topshiriqlar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur modelning afzalligi shundaki, u talabaning huquqiy bilimni real ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'laydi. Talaba nafaqat o'rganadi, balki real huquqiy muammoni hal etish jarayonida ishtirok etadi. Tadqiqotchi olimlar klinik-amaliy yondashuvning eng katta afzalligi sifatida talabalarda "klinik fikrlash" (clinical reasoning) va nostandart muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishini ta'kidlaydilar [7].

Dual ta'lim modeli. Dual ta'lim modelining vatani Germaniya hisoblanadi. Uning ildizlari o'rta asrlardagi ustaxona-shogirdlik an'analarga borib taqalsa, hozirgi ko'rinishda u Germaniyaning 1969-yildagi "Kasbiy ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida shakllangan. Hozirda bu model Avstriya, Shveysariya va boshqa Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda [8]. Dual ta'lim modelida o'quv jarayoni auditoriya mashg'ulotlari va ish joyidagi kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirilgan holda olib boriladi. Talaba haftaning bir qismini universitetda nazariya o'rganib, qolgan qismini korxona yoki muassasada amaliyot o'tagan holda o'tkazadi.

Ushbu modelning asosiy manfaati talabalarining mehnat bozoriga integratsiyalashuvi jarayonini tezlashtirishdir. Bitiruvchi nafaqat diplom, balki ish tajribasiga ega bo'lib chiqadi. Ish beruvchilar uchun bu malakali kadrlarni "tarbiyalash" imkoniyatini beradi, universitetlar uchun esa ta'lim mazmunini amaliyotga yaqinlashtirishga yordam beradi. O'zbekistonda bu modelni joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotlarda dual ta'lim metodi an'anaviy ta'lim shakllaridan farqli ravishda talabani passiv tinglovchidan faol ijodkorga va muammo yechuvchiga aylantirishi isbotlangan. O'quvchi tezkorlik bilan o'rganish siklidan – ya'ni qisqa muddatda nazariyani o'zlashtirib, uni darhol amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi [9].

Ushbu xalqaro va milliy modellarning har biri huquqiy ta'lim hamda amaliyot integratsiyasining muayyan funksional yo'nalishlariga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, dual ta'lim modelida o'quv jarayoni auditoriya mashg'ulotlari va amaliyot bazalaridagi real kasbiy faoliyatning o'zaro sinergetik uyg'unligi asosida tashkil etiladi. Bugungi kunda O'zbekiston yuridik

ta'lim tizimida mazkur modelni keng joriy etishning konseptual zaruriyati to'g'ridan-to'g'ri davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-232-sonli Farmoni mamlakatimizda yuridik ta'lim sifatini tubdan oshirish hamda uning amaliyot bilan uzviyligini ta'minlashning yangi strategik bosqichini belgilab berdi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida dual modelning tatbiq etilishi talabalarning auditoriyada olgan nazariy bilimlarini bevosita professional huquqni qo'llash muhitida mustahkamlashiga, ularda barvaqt kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga hamda mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Model nomi	Asosiy mazmuni va ishtirokchilari	Asosiy xususiyatlari	Afzalliklari va natijalari
Institutsional-integratsion model	Universitetlar va sud-huquq organlari, advokatura, notariat, ish beruvchilar o'rtasidagi doimiy hamkorlik	Amaliyotchi mutaxassislar darsga jalb qilinadi; o'quv rejalari ish beruvchilar fikriga asoslanadi.	Ta'lim jarayonini real kasbiy muhit bilan bog'lash, bitiruvchilarning adaptatsiyasini oshirish.
"Universitet – Davlat – Huquqiy amaliyot" modeli ("Uch spiral")	Universitet (ta'lim), Davlat (siyosat/me'yoriy baza), Amaliyot (kasbiy muhit) ishtirokchilari.	Har bir subyekt o'ziga xos funksiyani bajaradi: universitet – bilim, davlat – tartibga solish, amaliyot – tajriba.	Ta'lim siyosati, sud-huquq islohotlari va yuridik xizmatlar tizimining uyg'unlashuvi.
Klinik-amaliy model	Yuridik klinikalar, bepul maslahat markazlari, sud jarayonlarini modellashtirish (moot courts).	Talaba real mijoz bilan ishlashga kirishadi; nazariy bilim ijtimoiy ehtiyojlar orqali mustahkamlanadi.	Talabalarnin g huquqiy muammoni mustaqil hal qilish ko'nikmasini shakllantirish.
Dual ta'lim modeli	Universitet (nazariya) va ish beruvchi korxonalar (amaliyot) o'rtasidagi parallel hamkorlik.	O'quv jarayoni auditoriya va ish joyida bir vaqtning o'zida yoki navbatma-navbat olib boriladi.	Talabaning ish joyiga tez moslashuvi, nazariya bilan amaliyotning uzviy bog'liqligi (PF-232 asosida).

Yuqoridagi tahlillarga asosan tizimli ravishda qiyosiy tahlil qilingan barcha modellar (Uchlik spiral, dual ta'lim, klinik-amaliy va institutsional-integratsion modellar) tarqoq konsepsiyalar emas. Ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajriba va nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur modellar biz tadqiq etayotgan yaxlit „Huquqiy ta'lim klasteri“ modelining fundamental nazariyalari va konseptual asoslari hisoblanadi. Ushbu yondashuvning tarixiy-nazariy asosi Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter tomonidan 1990-yillarda ishlab chiqilgan klaster nazariyasiga borib taqaladi [10]. M.Porter o'zining "Milliy raqobatbardoshlik ustunligi" asarida klasterlarni bir-biri bilan bog'langan kompaniyalar, ta'minotchilar va bog'liq institutlarning geografik jihatdan konsentratsiyalangan guruhi sifatida ta'riflagan. Keyinchalik bu nazariya ta'lim sohasiga, xususan, hududiy ta'lim tizimlarini rivojlantirishga moslashtirildi. Bugungi kunda klaster modeli huquqiy ta'limni yagona maqsadga yo'naltirilgan ko'p subyektli tizim sifatida talqin etadi. Bu modelda universitet, ilmiy

markazlar, sud-huquq organlari, ish beruvchilar, yuridik klinikalar va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi [11]. Biz o'zimizning oldingi tadqiqotimizda ushbu huquqiy ta'lim klasterining umumiy institutsional va makro-konseptual asoslarini o'rganib chiqqan edik. Ushbu maqolada taklif etilayotgan yondashuv esa o'sha ilmiy izlanishlarimizning mantiqiy va izchil davomidir. Ayni shu Porter nazariyasiga tayanib, tizim subyektlari o'rtasidagi gorizontaal aloqalarni va resurslar (axborot, materiallar, mutaxassislar) oqimini ta'minlash uchun jadvalda keltirilgan modellar yagona huquqiy ta'lim klasteri modelini shakllantiruvchi quyidagi fundamental nazariy asoslar sifatida namoyon bo'ladi.

Nazariy modellardan milliy huquqiy realikka o'tish kontekstida ta'kidlash joizki, O'zbekiston sharoitida huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasining institutsional asoslari keng qamrovli subyektlar tarkibini o'z ichiga oladi. Xususan, ushbu tizim yuridik oliy ta'lim muassasalari, sudlar, prokuratura organlari, advokatura, notariat, ichki ishlar organlari, davlat boshqaruvi idoralari, korxonalarning yuridik xizmatlari (ish beruvchilar), ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro funksional faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Mazkur subyektlarning har biri yuridik kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy adaptatsiyasini ta'minlash jarayonida alohida, o'ziga xos konseptual vazifani bajaradi.

Shu bilan birga, milliy tajribada huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasini tizimli rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator institutsional muammolar ham ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, ko'p hollarda talabalarning ishlab chiqarish va kasbiy amaliyotlari deklarativ hamda formal tusda qolib ketmoqda, ish beruvchilar bilan aloqalar muntazam monitoring va qonuniy majburiyat zanjiri asosida tashkil etilmagan. Shuningdek, amaliyotchi yuristlarning bevosita ta'lim jarayonidagi ishtiroki yetarli darajada tizimlashtirilmagan, talabalarga bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'nikmasini beruvchi yuridik klinikalar barcha hududlarda bir xil moddiy-texnik va uslubiy poydevorga ega emas. Eng asosiysi, talabalarning amaliy-protsessual ko'nikmalarini baholash mezonlari ham zamonaviy raqamli va kriminologik tendensiyalardan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni talab etadi.

Mazkur tizimli muammolarni kompleks hal etish hamda tarqoq faoliyat yuritayotgan subyektlarni yagona ekotizimga birlashtirish uchun, avvalo, yuridik ta'lim muassasalari huzurida sud-huquq organlari, advokatura, notariat va korxonalar vakillaridan iborat doimiy strategik maslahat kengashlarini (klaster kengashlarini) tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday institutsional tuzilmalar o'quv rejalari, fan dasturlari, amaliyot formatini va bitiruvchilarga qo'yiladigan kasbiy-malaka talablarini mehnat bozori ehtiyojlari asosida muntazam tahlil qilib, ta'lim dasturlarini amaliyotga qonuniy moslashtiruvchi universal filtr vazifasini o'tashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yuridik kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish va tizimdagi institutsional uzilishlarni bartaraf etish faqatgina tarqoq ta'limiy loyihalar orqali emas, balki kompleks huquqiy-institutsional integratsiya platformasini yaratish orqali amalga oshirilishi lozim. Maqolada o'tkazilgan tizimli-qiyyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotda mavjud bo'lgan "Uchlik spiral", dual ta'lim hamda klinik-amaliy yondashuvlar alohida konsepsiyalar emas, balki biz tadqiq etayotgan yaxlit "Huquqiy ta'lim klasteri" modelining tarkibiy qismlari va muhim nazariy asoslaridir.

Iqtiboslar/Сноски/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5987 dated April 29, 2020 "On additional measures to radically improve legal education and science in the Republic of Uzbekistan").
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida". (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-232 dated November 26, 2025 "On measures to further reform legal education and science in the Republic of Uzbekistan").

3. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. 1998. – P. 77-90.
4. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – P. 38.
5. Sullivan W.M., Colby A., Wegner J.W., et al. Educating Lawyers: Preparation for the Profession of Law. San Francisco: Jossey-Bass, 2007. – P. 28-30.
6. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Triple Helix of University–Industry–Government Relations: A Laboratory for Knowledge-Based Economic Development. EASST Review. 1995. – Vol. 14, No. 1. – P. 14-19.
7. Ismailov, O. A. (2026). Tibbiy ta'lim talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyati. Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari, 8(2). Ismailov, O. A. (2026). (Didactic importance of preparing medical students for clinical procedures. Scientific reports of the Kokand State Pedagogical Institute, 8(2)).
8. Deissinger T. The German Dual Vocational Education and Training System: Its Strengths and Weaknesses in the Context of European VET Policy. Journal of Vocational Education & Training. 2015. – Vol. 67, No. 1. – P. 3-19.
9. Xamidova M.A. Dual ta'limning imkoniyatlari, afzalliklari va istiqbollari // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari: Ilmiy-amaliy jurnal. – 2025. – 23-to'plam, 1-son (Sentyabr). – B. 145. (Khamidova M.A. Possibilities, advantages and prospects of dual education // The role of research and development factors in the development of new Uzbekistan: Scientific and practical journal. – 2025. – Volume 23, Issue 1 (September). – P. 145).
10. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. 1998. – P. 77-90.
11. Aminov D.A. Huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasida klaster tizimining o'rni// Yurist axborotnomasi. – Toshkent, 2025. – № 4 (6-jild). – B. 87–93 (Aminov D.A. The role of the cluster system in the integration of legal education and practice // Lawyer's Bulletin. – Tashkent, 2025. – No. 4 (Volume 6). – P. 87–93).

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.